



## XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

VII-4-017-4-57-K/24

Dehqonobod tumani

### Dehqonobod tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrda VII-5-035-4-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikas Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrda 03-03/11972-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrda VII-5-035-4-0-K/24-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Dehqonobod tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari **109 596,5 mln.so'm** va xarajatlari esa **109 596,5 mln.so'mga** ma'lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tuman mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:  
jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;  
jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;  
mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Quyidagilar viloyat mahalliy budjeti hamda tuman mahalliy budjetiga belgilangan hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i 45 foizi tuman mahalliy budjetiga hamda 55 foizi viloyat mahalliy budjetiga (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i 40 foizi tuman mahalliy budjetiga hamda 60 foizi viloyat mahalliy budjetiga taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o'rtasida taqsimlanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig'imlar;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanish ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi tumanda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga:

ko'chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib 1,3 baravarigacha oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llashga haqliligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar budjetlariga to'liq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetiga yo'naltirishi ta'qiqlanganligi (bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori bo'lgan shahar va tumanlar mustasno) ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo'lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo'yicha esa respublika budjetidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o'tkaziladi. Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024 va 2025-

yillardagi davlat ulushi bo'yicha sof foydasining 100 foizini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida o'tkazishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to'lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Dehqonobod tumanining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari **1-ilovaga**;

Dehqonobod tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari **2-ilovaga**;

Tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilovaga**;

tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

- Bunda, ajratma meyorlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Qashqadaryo viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi **5-ilovaga** muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining 2025-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **6-ilovaga** muvofiq belgilansin.

7. Tuman mahalliy budjeti zahira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **1407,4 mln.so'm** miqdorida belgilansin. Bunda:

tuman mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zahira jamg'armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

tuman mahalliy budjetining zahira jamg'armasi mablag'larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

8. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m<sup>2</sup> uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga**, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m<sup>2</sup> uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar **9-ilovaga**, tumanning 2025-yilda soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasining qat'iy belgilangan miqdorlari **10-ilovaga** hamda 2025 yil uchun

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari U.Usmonov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (F.Nurmatov), tuman soliq inspeksiyasi (S.Jovliev) tumandagi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

10. Tuman hokimligi hamda barcha mas'ul tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (S.Jovliev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Dehqonobod tuman bo'limi (U.Nomozov), tuman soliq inspeksiyasi (S.Jovliev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (A.Rustamov) Bo'sh turgan ob'ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (I.Jo'raev) va tegishli ma'sul tashkilotlar bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari ro'yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

14. Dehqonobod tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM (T.Raxmonov) va tuman soliq inspeksiyasi (S.Jovliev) tumandagi ma'sul tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste‘mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilsin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (S.Jovliev), tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (I.Normurodov) tuman hokimining birinchi o‘rinbosari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvoffiq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rsinlar.

16. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi hamda ma’sul tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

17. Tuman mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchilar hamda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

18. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Sodiqov) tuman hokimligi va ma’sul tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (N.Tilakov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilganli ma’lumot uchun qabul qilinsin.

20. Tuman hokimligi Axborot xizmati (T.Yusupov), Davlat soliq inspeksiyasi (S.Jovliev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Nurmatov) bilan birgalikda hokimlik

muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni e'lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrda "Dehqonobod tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-57-120-4-57-K/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrda o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

23. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi B.Mengliyev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari U.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SHOKIROV SHERZOD  
UTKIROVICH

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Dehqonobod tumanining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoz  
ko'rsatkichlari hamda 2026-2027-yilga mo'ljallari**

№	Ko'rsatkichlar	2025 yil uchun prognoz	Mo'ljal	
			2026 yil	2027 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so'm	125,1	131,1	137,3
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	104,8	104,7	104,8
3.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	107,7	107,8	108,1
4.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	102,5	103,2	103,9
5.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	108,9	109,3	109,7

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
2-ilova

**2025-yil uchun Dehqonobod tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz  
ko'rsatkichlari**

<b>T/R</b>	<b>Daromad turlari</b>	<b>Jami</b>
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	2 251 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	53 201 000
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadiga daromad solig'i	
6	<b>Aksiz solig'i, jami</b>	19 250 200
	<i>- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq</i>	<i>19 250 200</i>
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 725 702
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 101 000
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	5 422 665
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	16 712 000
11	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	140 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	733 974
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovi	59 000
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
17	Yig'imlar	
18	Xususiyashtirish	
19	Boshqalar	
	<b>Maxalliy budjet</b>	<b>109 596 541</b>
20	Mobil aloqa xizmatlari	
21	Tamaki mahsulotlari	
22	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	
	<b>HAMMASI</b>	<b>109 596 541</b>

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
3-ilova

**2025 yil uchun Dehqonobod tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'lari  
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari**

ming (so`mda)

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Miqdori</b>
<b>Xarajatlar miqdori, Jami</b>		<b>109 596 541</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	109 596 541
<b>1.</b>	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	16 641 949
<b>2.</b>	Musiqqa va sanat maktabi	2 089 095
<b>3.</b>	Madaniyat bo'limi	966 271
<b>4.</b>	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi	5 757 123
<b>5.</b>	Sport bo'limi	1 804 783
<b>6.</b>	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 734 260
<b>7.</b>	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	1 435 691
<b>8.</b>	Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xafsizligi davlat markazi	406 280
<b>9.</b>	Fermer xo'jaliklari markazlashgan buxgalteriyasi	582 211
<b>10.</b>	Irrigatsiya bo'limi	964 205
<b>11.</b>	Iqtisodiyot va moliya bo'limlarini saqlash xarajatlari	1 997 911
<b>12.</b>	Hokimiyat	11 555 626
	shundan:	
	<i>Ijtimoiy ko'nikma markazlari</i>	134 979
	<i>Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»</i>	35 688
	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</i>	33 444 223
	<i>"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari</i>	2 703 529
	<i>Zahira jamg'armasi</i>	1 407 438
<b>13.</b>	Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	255 975
	shundan:	
	<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	111 036
	<i>Axborot-kutubxona markazlari</i>	489 534
<b>14.</b>	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	25 078 734
<b>15.</b>	Boshqa tashkilotlar	<b>0</b>

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
4-ilova

**2025-yil uchun Dehqonobod tuman mahalliy budgetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari**

№	Hudud nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Foyda solig'i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga	
		Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar
1	Dehqonobod tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	58%	100%	42%	0%	100%	100%	0%	
№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qanidan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarimalar		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
1	Dehqonobod tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%

*Izoh: 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag'lar to'liq tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlariga yo'naltiriladi;*

*2. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig'imlar (3 422 203) bo'yicha tushumlar to'liq tegishli tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlariga yo'naltiriladi;*

*3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budgetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budgeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.*

*4. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me'yorlarga asosan taqsimlanadi.*

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
5-ilova

**Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing  
chegaraviy hajmi**

ming (so`mda)

<b>T/r</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
1	Dehqonobod tumani	<b>109 596 541</b>	<b>109 596 541</b>

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
6-ilova

**2025-yilda Dehqonobod tuman mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida  
turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

ming (so`mda)

<b>T/r</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Miqdor</b>
1	Dehqonobod tumani	701 458

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
7-ilova

**Dehqonobod tumanida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsient**

<b>T.R</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)</b>	<b>Yer solig'i stavkasi 2025 yil uchun (ming.so'm)</b>
1	Dehqonobod tumani	0.75	29700.0

*Izoh: Tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman markazi uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
8-ilova

**Dehqonobod tumanida jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsient**

<b>T.R</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)</b>	<b>Yer solig'i stavkasi 2025 yil uchun (so'm)</b>
1	Dehqonobod tumani	0.70	246

*Izoh Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman markazi uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
9-ilova

**Dehqonobod tumanida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsient**

T/r	Hudud nomi	Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 2025 yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan (Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli sub'ektlardan tashqari)	
		Koeffitsent miqdori	Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so'mda)
1	Dehqonobod tumani	0.60	780000.0

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
10-ilova

**Dehqonobod tumanida 2025-yilda soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasining qat'iy belgilangan miqdorlari**

T/r	Hududlar	Bir oylik soliq stavkalari (so'mda)					
		Chakana savdo:			Maishiy xizmatlar va boshqa faoliyat turlari	Boshqa faoliyat turlari	
		<i>oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan</i>	<i>dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan</i>	<i>gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan</i>		3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun
1	Dehqonobod tumani	270 000,0	70 000,0	70 000,0	70 000,0	200 000,0	300 000,0

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
VII-4-017-4-57-K/24 -son qaroriga  
11-ilova

**Dehqonobod tumanida 2025-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijaraga to'lovining eng kam stavkalari**

T/r.	Hududlar nomi	Bir oylik ijaraga to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so'mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so'mda)
1	Dehqonobod tumani	1,00	5 500,0	1,00	11 000,0

**Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatdan qo'llaniladigan koeffitsentlar miqdori**

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	2025 yil koeffesent miqdori				
		Uy-joy va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	Boshqa axoli punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yohud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari
1	Dehqonobod tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1